

Mavzu: Matn turlari (hikoya, tasviriy, mulohaza)

Aa Qilichbozlik bōyicha jahon chempionati.*

qilichbozlik



***qilichbozlik** – qilich ishlatish mahorati, san'ati



O'zbekistonda **qilichbozlik** so'nggi yillarda jadal rivojlanib, xalqaro maydonlarda va Olimpiya o'yinlarida yuqori natijalarni qo'lga kiritayotgan olimpiya sport turlaridan biriga aylandi.

O'zbekistonlik yosh qilichbozlar Osiyo va Jahon chempionatlarida muntazam ravishda jamoaviy va shaxsiy birinchilikda sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqda.



1-mashq. O'qing. Matn turini aniqlang.

Bir tup yong'oq

Kuzda Shukurjon bizni hasharga chaqirib qoldi. Biz birga peshingacha yong'oq qoqdik. Yong'oqlarni tomga olib chiqib, yoydik. Shu vaqt tom atrofida ikki-uchta zag'izg'on paydo bo'ldi. Pastga tushganimizdan so'ng zag'izg'onlar tumshuqlarida bittadan yong'oq olib, havoga ko'tarildi.

Aytishlaricha, bitta zag'izg'on har yili kuzda qirqtacha yong'oq o'g'irlar ekan. Bu yong'oqlarni u bir yerga ko'mib qo'yadi va istalgan vaqtda olib yeydi. Ko'pincha, hisobdan adashib, bu yong'oqlarning hammasini yemaydi. Natijada o'sha yerda qolib ketgan yong'oq kelgusi yili unib chiqadi.

- Matn turini aniqlashda sizga qanday ma'lumotlar yordam berdi? Fikringizni izohlang.



2-mashq. Guruhlarga bo'linib, matnlarni o'qing. Matnlar nima haqida? Har bir matnni *kirish*, *asosiy* va *xulosa* qismlariga ajrating va ko'chiring.

Hikoya matni

Bir kuni qishda Madina quyonlarni boqayotgan edi. Pichan ostidan u muzlab qolgan qushchani topib oldi. Qizcha topilmasini o'z nafasi bilan isita boshladi. To'satdan qushcha qimirladi. Madina qushchani qutqarganini tushundi.



NEGA?



2

Tasviriyl matn

Daraxt shoxida jajji bir chumchuq o'tirardi. Boshining ustidagi kulrang patlari xuddi mittigina qalpoqchani eslatadi. Ko'kragi va qorni ham nafis kulrang tusda bo'lib, qanotlari to'qroq jigarrangda tovlanadi. Tomog'i ostidagi qora dog' esa xuddi keng bo'yinbog'ni taqib olgandek jozibali ko'rinadi. Qanday chiroyli qush!

NEGA?



3

Mulohaza matni

Daraxtlarning salqin soyasida mo'jazzgina marvaridgul yashirini olgan. Xo'sh, nima uchun biz bu kichik va kamtarin gulni yaxshi ko'ramiz?

Chunki marvaridgul nafaqat ko'zga quvonch bag'ishlaydi, balki inson salomatligi uchun ham juda katta foyda keltiradi. Undan tibbiyotda yurak xastaliklarini davolashda ishlatiladigan muhim dorilar tayyorlanadi.




NEGA?



4



3-mashq. Boshqotirmanani yeching. Kalit so'zni fonetik tahlil qiling.



4-mashq. O'qing. Ushbu gaplarni matn deb atash mumkinmi?

Kunlar soviy boshladi. Lekin biz xafa bo'lmaymiz. Iliq kunlar yana o'lkamizda mehmon bo'lishini kutib qolamiz! Qushlar ham issiq o'lkalarga uchib keta boshladi.⁴ Ular bosib o'tadigan yo'l esa uzoq va mashaqqatli.

- Bu – matn ekanini asoslang. Sizda qanday turdagi matn hosil bo'ldi?
- Matnga sarlavha qo'ying va ko'chiring.



5-mashq. O'qing. Matn turini aniqlang. Sarlavha qo'ying va ko'chiring.

Nima uchun itni insonning do'sti deyishadi? It xavf-xatar bor joyda insonga yordamga oshiqadi. Itlar davlat chegaralarini ishonchli qo'riqlashda askarlarning beminnat yordamchilaridir. Shu bilan birga zilzilalar vaqtida vayronalar ostida qolganlarni qidirib topishga va tog'larda adashgan yoki xavfda qolganlarni qutqarishga ko'maklashadi. Itlar haqida kitoblar yozilgan, filmlar suratga olingan. Ularga haykallar o'rnatilgan. Odamlar ham bu vafodor jonivorlarni chin dildan yaxshi ko'rishadi va qadrlashadi.

